



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 6-yanvar

VII-17-2-8-0-K/26

Surxondaryo viloyati

### **Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning 2026-yil uchun mol-mulk hamda yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-, 429-moddalariga asosan Surxondaryo viloyatida 2026-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash va viloyatda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Soliq boshqarmasining 2025-yil 5-dekabrda 27-105276-son xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i Sh.Rajabov, viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ga:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv. m uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatda bo‘lishini nazorat qilish;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv. m uchun mutloq miqdori viloyat markazlarida 2 350 000 (*ikki million uch yuz elik ming*) so‘m va boshqa shaharlarda va qishloq joylarda 1 390 000 (*bir million uch yuz to‘qson ming*) so‘m belgilanganligi minimal qiymatda bo‘lishi yuzasidan “Surxondaryo” televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish hamda televideniye orqali keng ommaga taqdim etish;

minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qishloq joylarida keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida, xalq

deputatlari viloyat Kengashi belgilagan minimal qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, 0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritish;

yuridik shaxslar tomonidan mavjud mol-mulkleri uchun hisoblangan yer soliqlarini o'z vaqtida va to'liq to'lab borishlarini nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

### 3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsiyenti 1-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (*yuridik va jismoniy shaxslarning*) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i Sh.Rajabov, viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov):

yer solig'ining amaldagi stavkalari yuridik shaxslar 1 gektarga 37,7 mln. so'm va jismoniy shaxslar 1 kv. m ga 353,0 so'm, yuridik shaxslar uchun 1,30-1,53 koeffitsiyentgacha va jismoniy shaxslar 1,2-1,5 koeffitsiyentgacha indeksatsiya qilinishi qo'llagan holda yer solig'i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan "Surxondaryo" televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish hamda televideniye orqali ommaga taqdim etsin;

belgilangan yer solig'i stavkalariga (*yuridik va jismoniy shaxslarning*) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llashlari yuzasidan ma'lumotlarni ta'minlab bersin;

10 (o'n) kun muddatda 2025-yil davomida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari uchun yer soliqlarini belgilangan muddatda va miqdorda faollik bilan to'lagan viloyatdagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarni mahalliy budjet hisobidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish to'g'risida tegishli xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga takliflarini kiritsin;

xalq deputatlari shahar va tumanlar Kengashlari tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini 5 (besh) kun ichida soliq to'lovchilarga ma'lumot uchun yetkazilishini ta'minlasin;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o'z vaqtida va to'liq to'lab borishlarini nazoratga olsin. har chorak yakunida yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig'i va undirilgan soliqlar to'g'risida hamda yuridik shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig'i va undirilgan boshqa soliqlari to'g'risida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borsin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat, shahar va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 24-yanvardagi “Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning 2025-yil uchun mol-mulk hamda yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida” VII-4-10-8-0-K/25-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror loyihasi regulation.gov.uzga muhokamaga qo‘yilganda berilgan taklif va e‘tirozlardan kelib chiqib o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror rasman e‘lon qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**CHORIYEV  
ABDURAIM  
RAVSHANOVICH**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati  
Kengashining  
2026-yil 6-yanvardagi  
VII-17-2-8-0-K/26 -son qaroriga  
1-ilova

**Surxondaryo viloyatida 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-  
mulkiga soliq solishda minimal qiymatga qo'llaniladigan koeffitsiyent  
MIQDORI**

<b>T/r</b>	<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Koeffitsiyent</b>
1	Termiz shahri	1,0
2	Angor tumani	1,0
3	Oltinsoy tumani	1,0
4	Boysun tumani	1,0
5	Muzrabot tumani	1,0
6	Denov tumani	1,0
7	Jarqo'rg'on tumani	1,0
8	Qumqo'rg'on tumani	1,0
9	Qiziriq tumani	1,0
10	Sariosiyo tumani	1,0
11	Termiz tumani	1,0
12	Sherobod tumani	1,0
13	Sho'rchi tumani	1,0
14	Uzun tumani	1,0
15	Bandixon tumani	1,0

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati  
Kengashining  
2026-yil 6-yanvardagi  
VII-17-2-8-0-K/26 -son qaroriga  
2-ilova

**Surxondaryo viloyati bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2026-yil  
uchun belgilangan yer solig'i bazaviy stavkalariga qo'llaniladigan**

**KOEFFITSIYENTLAR**

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha, 1 kv. m uchun (turar joylar uchun belgilangan o'sish me'yoridan oshmagan holda)	
		koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)	koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)
1	Termiz shahar	1,60	60 320 000	1,48	522,59
2	Angor tumani	1,40	52 780 000	1,25	441,38
3	Oltinsoy tumani	1,20	45 240 000	1,14	402,53
4	Boysun tumani	1,20	45 240 000	1,10	388,41
5	Muzrabot tumani	1,20	45 240 000	1,14	402,53
6	Denov tumani	1,45	54 665 000	1,36	480,22
7	Jarqo'rg'on tumani	1,40	52 780 000	1,25	441,38
8	Qumqo'rg'on tumani	1,30	49 010 000	1,19	420,19
9	Qiziriq tumani	1,20	45 240 000	1,10	388,41
10	Sariosiyo tumani	1,30	49 010 000	1,14	402,53
11	Termiz tumani	1,40	52 780 000	1,21	427,25

12	Sherobod tumani	1,30	49 010 000	1,14	402,53
13	Shoʻrchi tumani	1,40	52 780 000	1,31	462,56
14	Uzun tumani	1,30	49 010 000	1,14	402,53
15	Bandixon tumani	1,20	45 240 000	1,10	388,41